



Artistic personality and literary hero in the novel "Kingsblood Royal"

Aziza AKHMEDOVA¹

Uzbekistan State World Languages University

ARTICLE INFO

Article history:

Received June 2024

Received in revised form

10 June 2024

Accepted 25 July 2024

Available online

15 July 2024

Keywords:

artistic personality,
literary hero,
novel,
character,
realism.

ABSTRACT

The article analyzes Sinclair Lewis's novel *Kingsblood* (1947), which explores the theme of racial inequality and social justice through the life of the protagonist, Neil Kingsblood. After returning from World War II, Neil learns that one of his ancestors was black, which causes disrespectful and humiliating treatment from his neighbors and colleagues. The family is forced to move to another place. The novel reflects both the tragic and comic moments of this discovery. Lewis uses Neil's story to artistically comprehend current social issues. The article emphasizes how the author masterfully embodies in his work the ideas of truth and goodness, which are still relevant today.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss4-pp309-314>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

"Kingsblood Royal" romanida ijodkor shaxsi va adabiy qahramon

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

ijodkor shaxsi,
badiiy qahramon,
roman,
badiy obraz,
realizm.

"Kingsblood royal" (1947) romani ham tragik ham komik vaziyatni aks ettiradi. Ikkinchi jahon urushidan qaytgan Nil Kingsblad hayotida qiziq holat yuz beradi. Uning oila a'zolari har doim o'z shariflari bilan faxrlanishgan, zero, "kingsblood" "qirolga mansub, qirol qonidan" degan ma'no beradi va bu oila o'z ajdodlarining qirollarga qarindosh, qondosh ekanligiga ishonadilar. Otasining qutqusi bilan surishturuv olib borgan Nil aslida ajdodlaridan birining Afrikalik qora tanli inson bo'lganligini bilib qoladi. Bu haqda xabar topgan hamkasblar va qo'shnilar Nil oilasiga nisbatan pisandsiz va tahqirlovchi munosabatda bo'la boshlaydilar. Asar so'ngida esa ularni boshqa hududga ko'chib ketishga majbur qiladilar. "Kingsblood

¹ PhD, Uzbekistan State World Languages University. E-mail: aziza.ahmed@inbox.ru

royal” asari irqiy tengsizlik va kamsitish, ijtimoiy adolat masalalarini yuksak mahorat bilan badiiy aks ettirganligi bois hozirgi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan. Sinkler Lyuis asar qahramoni qiyofasida o‘zining haqiqat, ezgulik haqidagi qarashlarini yorqin aks ettirganligi maqolada asoslab berilgan.

Творческая личность и литературный герой в романе «Кингсблад, потомок королей»

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

творческая личность,
художественный герой,
роман,
художественный образ,
реализм.

В статье анализируется роман Синклера Льюиса «Кингсблад, потомок королей» (1947), который исследует тему расового неравенства и социальной справедливости через жизнь главного героя, Нила Кингсблада. После возвращения из Второй мировой войны, Нил узнает, что один из его предков был чернокожим, что вызывает неуважительное и унижительное отношение со стороны его соседей и коллег. Семья вынуждена переехать в другое место. Роман отражает как трагические, так и комические моменты этого открытия. Льюис использует историю Нила для художественного осмысления актуальных социальных вопросов. Статья подчеркивает, как автор в мастерской манере воплощает в своем произведении идеи истины и добра, актуальные до сих пор.

KIRISH

Sinkler Lyuis mahorat laboratoriyasining qahramon xarakterini yaratishdagi mihim bir jihati borki, maqolada ushbu jihat “Kingsblood Royal” romani misolida tahlil qilinadi. Sinkler Lyuisning qahramonlari misolida “ideal ibtido” sog‘lom mantiq ustidan g‘olibligi namoyon bo‘ladi, deb qayd etadi B.A.Gilenson [1: b.157] “Sinkler Lyuis o‘zining g‘o‘zallik, ezgulik, haqiqat haqidagi qarashlarini asar qahramonlari obrazida quyuq ifoda etadi” degan xulosaviy fikrni aks ettiradi qiyosiy yo‘sinda amalga oshirilgan tadqiqot [2]. S.Lyuisning navbatdagi qahramoni Nil Kinsblad ham avvalgi badiiy qahramonlar Errousmit, Dormes Djessep, Kerol Kennicot, Enn Vikerslarga o‘xshab muallifning gumanistik qarashlaridan, insonparvarlik falsafasidan unib chiqqanlarki, asar qahramonining har bir harakatida buni ilg‘amaslik imkonsiz.

“Kingsblud Royal” romani qahramoni Nil Kinsblad bo‘lib, asar voqealari ikkinchi jahon urushidan keyingi davr voqealarini aks ettiradi. Urushdan omon qaytgan Nil Grand Repablik shahridagi nufuzli bankda ishlaydi, so‘ngi jihozlar bilan to‘la shinam uyi, mashinasi bor. Sohibjamol rafiqasi Vestl oliynasab oiladan kelib chiqqan bo‘lsa ham Nil bilan turmushidan mamnun. Besh yoshli qizlari Biddi oilaning katta quvonchi. Shunday qilib asar ekspozitsiyasi “Amerikaning Baxtli Oilasi” ga xos lavhani taqdim etadi.

Bu safar asar konflikti Amerikaning eng nozik masalasi, irqiy mavzuga asoslangan. Malla va qo‘ng‘iroq sochli, moviy ko‘zli Nil Kinsblad ajdodi Ksav’e Pikning qora tanli bo‘lganligi haqida aniq tarixiy hujjatlarga duch keladi. 1940 yillar amerika jamiyatining oq tanli vakili uchun bundan ortiq fojea bo‘lishi mumkin emas! Bu holat shuni anglatadiki, Nil Kinsblad ham qonunan negr hisoblanadi. Bu hammasi tamom degani.

Shu o'rinda ayrim tarixiy faktlarni eslatib o'tish joiz. Garchi Amerikada 1865 yil, qonli fuqarolar urushi quldorlik tuzumiga chek qo'ygan bo'lsada, oq tanlilar ustivorligi haqidagi kibrli munosabatni jamiyat ongidan o'chira olmadi. Qora tanlilar bilan teng munosabatlardan qochish vositasi sifatida "Jim Krou qonunlari" ("Jim Crow Laws", 1890–1964) deb nomlangan norasmiy qoidalar jamiyatni irqiy jihatga ko'ra tabaqalashtirdi. Irqiy segregatsiya butun ijtimoiy hayotni qat'iy nazoratga olgan hamda oqlar va qoralar dunyolariga bo'lib yuborgan edi: ta'lim tizimida, ommaviy transport vositalarida, mehmonxonalarda, teatrd, restoranlarda, kasalxonalarda "ranglilar uchun" degan yozuv so'zsiz amal qiliishi kerak bo'lgan hukm edi. Irqiy masalaning eng fojeali tomoni shunda ediki, bir tomchi qon qoidasiga ko'ra (One-drop-rule) insonning ota yoki ona tomonidan etti avlodining birortasi qora tanli bo'lgan shaxslar ham teri tangidan qat'iy nazar qonunan "qora" ("Negro") hisoblanar edilar. Va, albatta, oq tanlilarga tegishli barcha imtiyozlardan mahrum edilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Asarni yozishga kirishganida har doimgidek, puxta tayyorgarlik bosqichini amalga oshirayotgan Sinkler Lyuis Dulut shahrida ma'lum muddat istiqomat qiladi, u yerda ko'plab tanishlar orttirib, ularni mehmonga taklif etadi. Oqlarga provokatsiyali savollar beradi. "Qoralarni xonadoninigizga mehmonga taklif qilasizmi? Yoki, "Qoralarning xonadoniga mehmon bo'lganmisiz?" Shunga o'xshash muhokama epizodlari bo'lg'usi asarga ko'chgan, deb yozadi R.Lingeman [3]. Ma'lum ma'noda Nil Kingsbladning qoralar dunyosini kashf etishida muallif o'zining shaxsiy tajribasini in'ikos ettiradi.

MUHOKAMA

Qora tanli shaddod xizmatkori Belfridaga nisbatan kamsituvchi munosabatni ko'rsatgan bo'lsada, Nil rasizm haqida hech qachon jiddiy o'ylamagan. *"Italyanlarga, fritslarga hech qachon biror xusumat his qilmaganman, lekin Belfridani ko'rarga ko'zim yo'q!"* [4.: b.17.] deya ta'kidlaydi Nil Vestl bilan suhbatda. Belfridaga er-xotin ishonishmaganliklari sababidan, o'zi yo'qligida xonasini tintuv qilib turadilar. Itlariga "Nigger" deb nom qo'yganliklari Belfridaga bu o'gir botishi mumkinligini umuman hisobga olmaganliklarini namoyon etadi. Ko'rinadiki, asar boshida kitobxon ko'z-o'ngida boshqa zamondosh, safdoshlari kabi o'z irqining ustunligini tabiiy qabul qilgan "toza qonli oriy", Oq Tanli Janob va Xonim, er-xotin Kingsbladlar gavdalanadi. Mazkur roman badiiy ma'nolarining eng yirik gavhari shuki, voqealar ketma-ketligi mana shu ikki insonni, xususan, Nil Kingsbladni dunyoni Oq tanli va rangli insonlarga bo'linishi nechog'li axmoqona, noinsoniy hamda fojeali ekanligini butun tanu joni bilan his qilganligidadir.

Shunday qilib, irqchilikning insoniyatni ne kuylarga solishini ko'rsatmoqni niyat qilgan muallif o'z hikoyasi qahramonini qiziq, shu bilan birgalikda dahshatli vaziyatga tushuradi. Ehtimol bunday badiiy priyomda Lyuisning zamondosh modernistlarning ham ta'siri bordir. Zero, modernizm ham badiiy qahramonni absurd vaziyatga, inson aqli bovar qilmaydigan kuylarga solib uni qanday harakatlanishini kuzatadi. Nil ham Kafkaning Gregor Zamzasi kabi tayqusdan evrilib qoldi, faqat qo'ng'izga emas. Maxluqqa, chunki Nilning nazdida, negr bo'lish shuni anglatar edi:

"Bu jismonan hayvon bo'lishni anglatar edi; Bu madaniy jihatdan Betxoven va St. Avgustinga kar bo'lishga teng; Bu axloqiy tomondan o'z nafsini o'g'rilik va zo'ravonlikdan, yolg'onchilik va xiyonatdan tiya olmaslik degani. Bu tom ma'noda va

umuman, odam va maymun o'rtasidagi arosatda bo'lish degani".* [4.: b.56]. Yozuvchining chin istedodi shundaki, mana shunday o'rtamiyona fikrlaydigan insonni haqiqat uchun mardonavor turib beradigan Shaxsga transformatsiyasini ishonarli, qiziq va beqiyos bir yo'sinda hikoya qiladi.

Urushdan cho'loqlanib qaytgan yosh yigitning ishdan holi vaqti bemalol edi. Ayni shunday vaziyatda otasi Nilga muhim topshiriqni ishonch bilan beradi. Gap shundaki, Nilning oila a'zolari har doim o'z shariflari bilan faxrlanishgan, zero, "kingsblood" "qirolga mansub, qirol qonidan" degan ma'no beradi va bu oila o'z ajdodlarining qirollarga qarindosh, qondosh ekanligiga ishonadilar. Otasining ta'rificha, ajdodlaridan biri ingliz qirolining nikohdan tashqari munosabatlardan tug'ligan. Demak, Kingsladlar oilasi qirollar avlodi ekanligini tezroq tasdiqlab olish, isbotlash lozim. Otasining qutqusi bilan surishturuv olib borgan Nil aslida ajdodlaridan birining Afrikalik qora tanli inson bo'lganligini bilib qoladi. Demak, "Bir tomchi qon" qoidasiga ko'ra, Nil ham uning pushti yuzli malikasi Bididi ham negr hisoblanadi. Qahramonining bu haqda xabar topgan ondagi holatiga yozuvchi shunday ta'rif beradi: *"Endi uni hech bir holat bundanda hayratga sola olmaydi; Go'yoki tushida qotillik qilganini endi bilib qolgan, izidan politsiya kelayotgan oyparast kabi uning butun borlig'ini tilsiz dahshat qoplab olgan"* [4.: b.55]. Bir soniyada Nil Kingsblad deb nomlangan shaxs barbod bo'ldi. Bankda ishlab yorgan xushchaqchaq yigitcha; veteranlarga yordam berish haqida loyihalar bilan band bo'lgan sobiq ofitser; obro'li dantistning o'g'li, mayor Rodney Oldvikning do'sti, mag'rur Vestlning suyukligi Nil Kingsblad boshqa ediyu, mana hozir o'zining qora ekanligidan xabar topgan shaxs boshqa. Faqat u negr bo'lib yashash nimaligini hali bilmaydi. Sog'lom mantiq ovozi Nilga qayta-qayta bir narsani takrorlaydi: bu ma'lumotni qat'iy sir tutishi kerak. Shundagina hayotini davom ettira oladi.

NATIJALAR

Oqlar uchun ko'rinmas, sezilmas bo'lgan qoralar dunyosida Nil Kingsblad "o'zi o'ylaganidan ham tig'izroq kirishib ketadi". Yozuvchi odatdagidek, o'zi tasvirlayotgan odamlar toifasining butun boshli katalogini namoyish etadi. Kingsbladning yangi tanishlari orasida qora tanlilarning turfa ijtimoiy qatlamlariga mansublar gavdalanadilar: Sofi Konkorddek jasur biroq maftunkor, zukko va zebo hamshira qiz; Even Bruster kabi diniy voiz, unga yozuvchi *"Nil hech qachon inson nigohida bunday mehribonlikni, bunday yumshoqlikni, ochiq va jasur mehrni, barcha tirik mavjudotlarga va hayotning o'ziga bo'lgan bunday muqarrar sevgini ko'rmaganligini tan oldi"* deya ta'rif beradi; halol va mehnatkash shifokor Emerson Vulkeyp, qizig'i doktor Emerson bilan uzoq yillar maktanda birga, bir sinfdagi o'qigan Kingsblad bu "rangli bola" bilan faqat salomlashgan ekan xolos; Ash Devisdek ilg'or fikrli kimyogar olim; qoralarning ham teng imkoniyatlarga ega bo'lishi uchun jonini berishga tayyor Rayan Vulkeyp va boshqalar. Kingsblad, amin bo'ladiki, ijtimoiy adolat uchun kurashmoq lozim. Ayni shu ma'nodagi fikr muallifning "Janoblar, bu inqilob" deb nomlangan maqolasida ham namoyon bo'ladi. Sinkler Lyuis yozadiki, *"...endi qora tanlilar o'zlarini odam o'rnida ko'rmasliklariga boshqa toqat qilmoqchi emas. Ular endi x'orlangan, unitilgan, savodsiz emaslar. Inqilob allaqachon boshlangan"* [5].

* It was to be an animal physically; it was to be an animal culturally, deaf to Beethoven and St. Augustine. It was to be an animal ethically, unable to keep from stealing and violence, from lying and treachery. It was literally and altogether – her to be an animal, somewhere between human beings and the ape.

Asar voqealari davomida qoralar voqeligiga singgani sari Nil Kingsbladda ijtimoiy adolat, insoniy qadr uchun kurash hissi kuchayib boradi. Syuijetning klimaks qismi mayor Oldvikning ziyofatida omma oldida Nil Kingsbludning anchadan beri farzandining kelajagi haqqi sir saqlashni lozim topgan o'sha ma'lumotni o'z ixtiyori bilan baralla fosh etgan epizodiga to'g'ri keladi. Nil biladiki, shovinist Oldvikning qora tanli zobitlarning frontdagi nomardlik qilganliklari haqiqat emas. Nil aniq biladiki, teri rangining salohiyatga qobiliyatga qalb holatiga hech qanday aloqasi yo'q ekan! Qora tanlilarning ham insoniy munosabatga loyiq ko'rilishi uchun aynan mening ham kurashda hissam bor, degan fikr Nilning butun borlig'ini qamrab oladi.

Grand Republikda Nil Kingsbludning siri fosh bo'lgach, u kulfatlar, mahsqqatlar ketma-ketligini boshidan kechiradi:

- Bank faoliyatida lavozimi ko'tarilishini anchadan beri kutib yurgan Nilni ishdan bo'shatishadi. Sababi quyidagicha izohlanadi: "rangli xodim bizda ishlashi mijozlarimizga yoqmaydi". Xullas, Nildek xodim tufayli obro'lari to'kilishini hohlamas ekanlar.

- Oilaviy sirni ommaga oshkor etib, qarindoshlari hayotini xatarga qo'ygani uchun onasidan bo'lak barcha yaqinlari Nildan yuz o'giradilar. Akasining oilasi ayanan shu sabab buziladi. Uning rafiqasi negrning xotini bo'lishni istamaydi. Akasi esa, uzoqlarga bosh olib ketadi. Singlisining esa qallig'i sirdan voqif bo'lgach tashlab ketadi. Bahordek gullagan chog'ida singlisi bir umrlik yolg'i'izlikka mahkum bo'ladi.

- Barcha Kinsbladlar uchun avvalgi ijtimoiy hayot eshiklari yopiladi. Sport klublari, ulfatlar jamoalari, muntazam bazmlarga chaqirgan xonadonlar, qo'ni qo'shnilarning ochiq chehralariyu dilkash suhbatlari ham ular uchun o'tmishga aylanadi.

- Kingsblud va Vestl munosabatlari eng qattiq zardalarga duch keladi. Badavlat kibor Bihauslarning zurriyodi bo'lgan Vestlni otasi sharmandali bo'lgan, istiqbolsiz nikohni hech ikkilanmay tark qilishga da'vat etadi. Aks holda hech qanday moddiy yordam ko'rsatmasligini aytib ogohlantiradi. Vestlning Nilga tanbehlari ko'payadi, tanqidi kuchayadi, mehri esa kamayib boradi.

- Oilaning yagona boquvchisi Nil Kingsbladni hech bir idora, tashkilot ishga olmaydi. Bir sababga ko'ra: so'rovnomada Nil "rangli" deb belgilaydi. Qishning qahratonida muzlagan yo'laklardan ne mashaqqatlar bilan cho'loqlanib borar ekan oq tanlilarning shavqatsiz dunyosiga nafrati ortib boradi.

- Nilning besh yoshli farzandi ham irqiy kamsitilishga uchraydi. Qo'shni bolalar Nilning suyukli qizi, shu paytgacha barcha tomonidan erkalatib o'stirilgan Biddini haqoratlab, ustidan kuladilar. Ota esa, anglaydiki, bunday kamsitishlarni cheklash imkonsiz. A'lamidan qo'lga qurol bilan qo'shnisinikiga bostirib borgan Nil, hafsalasi pir bo'lib qaytib keladi.

- Grand Republikning ashaddiy irqchilari Nilga qarshi kuch to'playdi. Dag'dag'ali telefon qo'ng'iroqlari, maxsus xodimlarning uyni bo'shatish haqidagi davolari, Nilning itiga noma'lum shaxsning o'q uzishi qahramonni qattiq azob iskanjasida qoldiradi.

XULOSA

Shunday ichki va tashqi qiynoqlar tufayli Nil obrazida ruhiy evrilish sodir bo'ladi. Sinkler Lyuis mazkur ruhiy evrilishni ko'rsatish maqsadida turli badiiy vositalar, ptiyomlarga murojaat qiladi. Misol uchun hissiyotlarni isyonga keltiradigan ayrim lavhalarda muallif *jim qolish priyomini* o'rinli qo'llaydi. Masalan, Vestl yana homilador ekanligini oshkor etgan epizodda Nil qattiq ruhiy zarba oladi. Chunki, Vestl negr bolani dunyoga keltirishni hohlamasligini aytib abort qilmoqchi ekanligini qat'iy elon qiladi.

Vestlni “Tun bo’yi yig’ladi” deb yozadi muallif. Qo’rqib ketgan Biddi “bechora oyisini nima bilan davolash kerakligini” so’rab keladi, “Nil esa,” yozadi Lyuis, o’z krovatida “avtomobil chiroqlanidan kelayotgan nurlarni shiftdagi aksini kuzatib yotadi”. Ko’rinadiki, mazkur kuchli iztirobli vaziyatda muallif qahramon qalbi holatini qator hissiyotli so’zlar bilan ifoda etishning o’rniga mikro epizod orqali qahramonning fojeaviy ruhiy holatini manzaralashtiradi. Yana bir epizodda xaridor ayollarning hissizlarcha qora Nilning shaxsiyatiga tegishini tavsiflagan muallif qahramonning ichki g’alayonlarini birgina gapda jo qiladi: “Negrlar sukut saqlay oladi”.

Irqchilik deb atalgan buzg’unchi hodisa yana qancha insonning taqdirini fojeaga aylantiradi? Asarni o’qigan har bir insonda faqat savollar ketidan savollar tug’iladi. Zero, muallif ham ehtimol shuni ko’zlagan. U asarni echimsiz, ochiq qoldiradi. Nil Kingsblad va Vestl roman so’ngida ularni qo’llash uchun kelgan bir guruh do’stlari bilan birga qahrli olamonga qarshi kurashadi. Olomonning istagi yagona: Nil va Vestlni oqlar yashaydigan hududidan ko’chirib yuborish. Muallif Nilning uyiga qurollanib bostirib kelayotgan olomonga shunday ta’rif beradi: *“Ularni odam deb bo’lmaydi; ular nafratning qora dovullari”*.

Ko’rinadiki, Sinkler Lyuisning xarakter yaratish mahoratida estetik ideallar ifodasi qahramon qiyofasida yorqin aks etadi. Sinkler Lyuis haqiqat mavzusiga qayta qayta murojaat qilsada, har safar o’z estetik idealini aks ettirishning original, jozibali va ta’sirchan mexanizmlarini qo’llashda turli tajribalarni amalga oshirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Гиленсон А. Б. Америка Синклера Льюиса. – М.: «Наука», 1972. –188 с.
2. Ахмедова А.К. XX аср америка ва ўзбек реалистик романларида идеал қаҳрамон образи. Т.: “Ilm Ziyozakovat”, 2022. –Б.157.
3. Lingeman R. Sinclair Lewis. Rebel from Main Street. Random House, 2002. p.403.
4. Lewis S. Klngsblood Royal. Random House, New York, 1947.
5. Lewis S. Gentlemen, this is Revolution. Reviews in Esquire, June 1945.
<https://classic.esquire.com/article/1945/6/1/gentlemen-this-is-revolution>